

BOG'CHA YOSHDAGI BOLALARGA INGLIZ TILNI TEZ O'RGATISH METODLARI

*M. Toxirova*¹

Annotatsiya:

Hozirda dunyo rivojlanayotganligi tufayli ingliz tiliga e'tibor kattalashib ketyapti. Rivojlangan davlatlarda ingliz tili ikkinchi til sifatida qabul qilingan va shu tufayli ingliz tili maqomi ko'tarilib ketyapti. Shular jumlasidan O'zbekistonda ham ingliz tiliga e'tibor kundan kunga kattalashib boryapti. Masalan: maktablarda, universitetlarda hattoki bog'chalarada ham bolalarga ingliz tili o'rgatilib kelyapti. Bu maqolada ingliz tilini bog'cha yoshdagi bolalarga qanday qilib tez va samarali o'rgatish metodlari haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: bog'cha yoshdagi bolalar, metodlar, tez o'rgatish, yangi til, o'yinlar' samarali

doi: <https://doi.org/10.2024/d6rmrj34>

Kirish

Avvalo shuni ta'kidlashni xohlardimki ingliz tili bizni birinchi tilimiz bo'lmasayam unga e'tibor katta va ko'p tilni bilish bu foydalidir. Ayniqsa, bolalar ingliz tilini yoshligidan o'rgansa bu ularni kelajagiga katta muvofiqiyatlarga erishishga yordam beradi. Til o'rganishni eng yaxshi vaqti bu bolalik davri deb ham atashadi chunki o'sha yoshda bola rivojlanishi boshlanayotgan bo'ladi va u o'ziga ko'p narsalarni qabul qilish osonroq bo'ladi.

Adabiyotlar tahlili

Hozirda til o'rganishga katta e'tibor qaratilgani tufayli hammam yoshdagi odamlar til o'rganishga qiziq boshlashyapti. Til o'rganish ham odamalarni yosh davrlariga bog'liq hisoblanadi. Psixologlarning fikricha, bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtiradilar. Bolalarda til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda esa bolalar vaqtining ko'pligi buning asosiy sabablaridandir. Shuni e'tiborga olish kerakki, 6-7 yoshli bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shunday ekan, kichik yoshdagi bolalarga chet tilini o'rgatish ancha mushkul va hisoblanadi. Bolalarga ingliz tilini o'rgatish uchun interaktiv usullardan foydalanish samarali o'rganish va jalb qilishni rag'batlantiradigan bir qator afzalliklarni taklif etadi. Agar siz ularni erta bolalik davrida bera olsangiz, bu yaxshi bo'ladi. Erta bolalikni o'rganish mustahkam poydevor qo'yadi. Quyida ko'rsatilgan usullar orqali bolalarga ingliz tilini tez va qiziqarli o'rgatish mumkin;

- qo'shiq va she'rlar orqali tushuntirish yoki esda qolishi qiyin bo'lgan, ma'noga ega bo'lmagan harf yoki birikmalarni kuyga solib o'rgatish.

Bunga misol qilib, bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki yodlashdan ko'ra samarali ekanligini ko'rsatish mumkin.

- aqliy va jismoniy harakatlar bilan bo'g'liq bo'lgan o'yinlar;

¹ *Toxirova Mohina Faridunovna, Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi*

- multfilmlar; Bolalar til o'rganish davrida ko'proq multfilmlar ko'radi. Ularni hamma gapini tarjimasini bilmasa ham ularni xatti-harakatidan nima bo'layotganini tushunishga harakat qilishadi va bu til o'rganish vaqtida samarali natija ko'rsatadi.

- rol ijro etish(role play) o'qituvchi biror ma'lumotni, masalan, hayvon yoki qushlarning nomlarini o'rgatayotgan paytda rol orqali ijro etishi yoki bolalarga ijro ettirishi lozim. Misol uchun: bir o'quvchi itning vovillashi, mushukning miyovlashini

ko'rsatib bersa, boshqa bir o'quvchi bu tovushlar qaysi hayvonga tegishli ekanligini bilib, uning inglizcha nomini aytish zarur [1].

Bola tabiatan juda qiziquvchan bo'ladi va u atrof olamni o'rganish uchun barcha xis tuyg'ularini ishga soladi. O'yin bolalarning yosh davridanoq eng sevimli mashg'ulotlaridan biri hisoblanadi, ular o'yin orqali tabiatni va yangi narsalarni tez o'zlashtira boshlashadi va o'yin orqali o'rganish ularning samaradorligini oshiradi. O'yin bolani nafaqat jismoniy faolligini oshiradi shuningdek, u ruhiy tetiklikni ham shakllantirishga yordam beradi. O'yin bolalarga o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga juda katta rol o'ynaydi hatto uni atrofdagi odamlar bilan ham munosibatiga katta tasir ko'rsatadi. Shu sababli ota — ona va tarbiyachi murabbiylar bolalarga imkon qadar ko'proq o'yin orqali o'rganishni targ'ib qilishlari kerak. Aynan o'yin orqali bolalar ta'lim oladilar o'z iqtidorlarini kashf etadilar. Bunga erishish uchun sezgi organlarini faollashtiruvchi muhitni, jumladan vizual, eshitish, kinestetik kabi faol ta'lim turlaridan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Ta'limiy o'yinlar musiqa asboblarni chalish, qo'shiqlar kuylash, she'r aytish, raqsga tushish, o'yin o'ynash, videolar tomosha qilish, qo'l mehnati vositasida turli narsalar yasashni o'z ichiga oladi. Rangli ko'rgazmalar, kartalar, musobaqalar, rol o'yinlar, turli shakllar yasash kabi o'yinlar bolalarni jismoniy va aqliy faoliyatini rivojlantiruvchi eng qiziqarli usullardan biridir [3].

Har qanday vaziyat va faoliyatlar zahirida ingliz tilini o'rgatish yotganligi tufayli, ushbu faoliyatlar ravon va tushunarli tarzda ingliz tilida olib borilishi maqsadga muvofiq. Ingliz tili o'rganilayotganda, ona tilidagi muloqotni kamaytirib ko'proq o'rganilayotgan tilga urg'u bersa bu o'sha tilni o'rganishda samarali natija ko'rsatadi. Albatta murabbiyning harakati, imo ishorasi va ingliz tilida ravon nutqi va gapirish ohangi bilan bolani o'ziga jalb qila olishi til o'rgatishdagi eng birinchi va asosiy muvaffaqiyatlardan hisoblanadi. Xususan, til o'rgatuvchi murabbiylarning "Playing with blocks or legos" (blokklar yoki lego vositalari bilan o'ynash), "Dressing" (turli ertak qahramonlari kiyimlarini kiyish), "Animals and their sounds" (hayvonot olami va ularning tovushlari bilan tanishish), "Crafts" (qo'l mehnati yordamida turli narsalar yasash), Sing a song (qo'shiq kuylash) [3] kabi ta'limiy faoliyat turlaridan foydalanishi yosh bolalarda til o'rganish ko'nikmalarini shakllantirishdagi maqbul usullardan hisoblanadi. Biz ushbu faoliyatlardan foydalangan holda bolalarning so'z boyligini, tasavvurini va ijodiy fikrlashni kengaytirish va rivojlantirib borish imkoniga ega bo'lamiz.[1]

Bolalarga ingliz tilida shakllar, ranglar va raqamlar haqida tushuncha berish maqsad qilinganda aynan blokklar, kubiklar hamda lego o'yini orqali amalga oshirilganda o'zlashtirish natijasi yaxshiroq bo'lishi amaliyotda o'z isbotini topgan. Blokklar, kubiklar va lego o'yinchoqlarini o'ynash bolani fikrlashga undaydi va biror ish qilishda uning ijodiy qobiliyatini yuzaga chiqaradi, shu bilan birga bu o'yinlar vositasida bolaning ingliz tilida lug'at boyligini oshirish imkoniyati ham paydo bo'ladi. O'yinlarda so'z boyligini ingliz

tilida savol berish hamda asosiy tushunchalarni ko'rsatma orqali yetkazish bilan amalga oshiriladi.[4]

Ta'limiy faoliyatda bolalarni faol qatnashishini ta'minlash, har bir bolaga aloxida e'tibor qaratish va bolani ushbu mashg'ulotda biror narsa o'rganish uchun rag'batlantirib borish lozim. Mashg'ulotga yutuqqa erishayotgan bolalarni ishi uchun maqtab qo'yish ham ulardagi rag'batni kuchaytiradi. Ammo psihologlarning fikricha maqtov shaxsga nisbatan emas balki qilingan ishiga nisbatan qaratilishi kerak deyiladi. Chunki agar maqtov shaxsga nisbatan berilsa bu bolani keyinchalik hudbinlikka yetaklab borishi mumkin ekan. Ishiga qaratilgan maqtov keyinchalik ham har qanday ishni sifatli va tez bo'lishini ta'minlaydi [2].

Materials and methods

Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarga ingliz tilini tez o'rgatish uchun tajriba o'tkazildi. Bu tajribada tez va oson o'rgatish uchun ularga har xil metodlarda foydalaniladi. Yosh bolalarni miya faoliyati tez ishlashi tufayli, ularga biron xil yangi til yoki narsalarni o'rgatsangiz ular juda tez o'rganadi shu tufayli bolalar 5 yoki 6 yoshga to'lgandayoq ularga boshqa yangi tillarni o'rgatish samaraliroq hisoblanadi.

Biz buni tekshirib ko'rish uchun tajriba o'tkazdik. Bu tajribada biz ularni 1 hafta davomida kuzatdik. Ularga ingliz tilini tez o'rgatishni har xil metodlardan foydalandik.

1-kun bolalarga ularni yoshiga mos multfilm qo'ydik va ularni diqqat bilan kuzatdik. Ular boshida juda katta qiziqish bilan ko'rishdi va multfilm tugagandan keyin ulardan savol so'rashni boshladik. Ular multfilm ularga qiziq bo'lganini va yangi so'zlar o'rganishganini takidladilar. Masalan: hello (salom), good (yaxshi), family (oila), colour (rang) va shunga o'xshash so'zlarni o'rganishdi.

Tajribani 2-kunida esa biz ularga ingliz tilini turli xil o'yinlar orqali o'rgatishga harakat qildik. Bu tajribada turli xil kartachkalardan foydalanildi u kartachkada har xil hayvonlar rasmi ko'rsatilgan edi. Biz bu kartachlarni ko'rsatib ular bilan birgalikda hayvonlar nomini ingliz tilida aytilishini va bu hayvonlarga doir kulguli faktlar aytdik, shu tariqa bolalar hayvonlardan ko'pini eslab qolishga muvoffiq bo'lishdi.

Tajribani 3-kunida esa plastilinlardan foydalanildi. Ularga biz plastilinlardan har xil shakllar yasash kerakligini tushuntirdik. Ular plastilinlardan har xil shakllar yasashdi va ularni birgalikda bu shakllar ingliz tilida qanday atalishini birgalikda aytdik. Masalan: square (to'rtburchak), round (aylana), slinder (slinder) shunga o'xshash shakllarni aytib ularga o'rgatdik.

Tajribani 4-kunida bolalarga oila azolarini chizishni so'radik. Ular o'z oila a'zolarini chizishdi, keyin birgalikda ularga biz oila azolar ingliz tilida qanday atalishini aytdik. Masalan: father (ota), mother (ona), sister (opa), brother (aka), grandfather (buva), grandmother (buvi) ekanligini birgalikda takrorladik. Bu ularga boshida qiyondek tuyuldi, ammo 2-3- urinishda oson bo'ldi va ular yodlab olishdi.

Tajribani oxirgi kuniga kelib biz ular bilan o'yin o'ynadik bu o'yinda biz xonada qanaqa narsalar bo'lsa ularni ingliz tilida qanday atalishini aytdik. Misol uchun: stol (table) o'yinchoqlar (toys), kartachlar (cards), stul (chair), qalamlar (pencils) ekanligini aytib birgalikda bir necha bor takrorladik va narsalarni inglizchada aytdik ular esa o'shani o'zbekcha variantini aytdilar b u bir vaqtda ham foydali va qiziqarli bo'ldi.

Tahlillar va natijalar

Ushbu tajribada biz bog'cha yoshdagi bolalar bilan ishladik va 5 kunlik tajribada ko'p narsalarga amin bo'ldik ya'ni bolalar miyasi ma'lumotlarni tez olib ko'p vaqtgacha eslab qolishadi shuning uchun bu jarayonda ularga ko'p narsalarni o'rgatsak ular tez qabul qilib olishadi.

Bu tajribada 16 ta bolalar qatnashishdi, ular 4 va 6 yoshlar atrofida edi shuning uchun biz ularni darajasiga qarab osonroq mashqlar o'tkazishga harakat qildik va mashq davomida ularni kuzatdik. Kuzatish davomida ularga qanchalik oson yoki qiyin bo'layotganini kuzatdik.

Ushbu tajribada 5 ta oddiy ularni darajasiga mos qiyin bo'lmagan mashqlardan foydalanildi. Bu mashqlar ularga qiyin bo'lmashligiga e'tibor qaratildi.

1- mashqda ko'rish orqali yangi so'zlarni yodlashini aniqlash

2-mashqda kartachkalar yordamida yodlashini aniqlash.

3-mashqda plastilindan shakllar yasab yangi so'zlarni yodlashini aniqlash.

4-mashqda rasm chizib yangi so'zlarni o'rganishini aniqlash.

5-mashqda xonadagi narsalarni inglizcha tarjimasini qanaqa o'rganishini aniqlash

1-mashqda ko'rinib turibdiki ko'rish orqali so'zlarni yodlab oladigan bolalar o'rtacha bo'lib, ulardan faqat 30% ko'rib o'rganishga qiziqadi. Bu shuni ko'rsatadiki bironta yangi narsani ko'rib undan o'rganish hamma bolalarni ham sevimli mashg'uloti emasligini bu tajriba ko'rsatib beradi.

2 va 3 chi mashqda bolalar juda ham faol qatnashishdi va bunda 50% bolalar ijobiy natija ko'rsatishdi. Bu shuni ma'lum qiladiki yosh bolalar yasash orqali ko'p malumot olishadi va bu narsalar ularni sevimli mashg'ulotlaridan biri hisoblanadi.

4 chi mashqda esa ulardan 45% yaxshi natijalarga erishishdi qolganlari esa katta e'tibor qarata olishmadi. Bundan ma'lumki chizish hamma bolalarni ham yaxshi ko'rgan mashg'uloti emasligi ma'lum bo'ldi.

5 chi mashqda esa bolalar boshida sal qiyinchilik duch kelishdi keyin esa ular tez muhitga o'ranib ketishdi va ulardan 80% faol qatnashishdi va tezda yangi so'zlarni o'rganib ketishdi. Bundan ko'rinib turibdiki yosh bolalarga o'yin orqali yangi so'zlarni o'rgatish va birgalikda o'ynash ular uchun katta tasir ko'rsatadi va ularni rivojlanishiga ijobiy tasir ko'rsatadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'lim usullarini yosh avlodning xohish-istaklari va ta'lim uslublari moslashtirish samarali ta'lim olish uchun juda muhimdir. Texnologiyalar, interaktiv strategiyalar va real ilovalarni o'z ichiga olgan holda, o'qituvchilar nafaqat o'rganishni tezlashtiradigan, balki bilimga umrbod ishtiyoq uyg'otadigan muhitni yaratishi mumkin. Bu usullar bilan biz yosh avlodga yangi tillarni tez va samarali o'rgatishimiz mumkindir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

[1]. Yusupov L. S. Bolalarni ilk yoshida xorijiy tillarni o'rgatishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati: Muammo va yechimlar. Молодой ученый. — 2020. — № 26 (316). — С. 339-343.

[2]. Early childhood education in English for speakers of other languages by ViAdam, Bob and Morris Paul (1997) the English curriculum in the People's Republic of China, comparative education Review, 41, 3-26